

## **Плюсы И Минусы Использования Метода Наказания В Воспитательном Процессе**

**Азамов Умархон - Преподаватель Намгу. Гаффаров Азизжон Студент Намгу**

"Воспитание для нас - это либо жизнь, либо смерти, либо спасение, либо разрушение, либо счастье, или это вопрос разрушения"

**Annotation:** The article describes the pros and cons of general and individual methods of punishing children in educational institutions. Scientifically revealed the negative impact of punitive measures on the child's psyche without taking into account the child's psyche.

**Ключевые слова:** Воспитание, Национальное воспитание, Поощрение, наказание.

Bu mavzuni yoritishdan oldin:" Tarbiya o'zi nima? Tarbiya jarayoni qanday? Bu jarayonda kimlar qatnashadi? Tarbiyada millilikning tutgan o'rni?" kabi savollarga to'xtalib o'tsak maqsadga muvoffiq bo'ladi.

Tarbiya shaxsning maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtiriladi va tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkoniyatini beradi. Tarbiya jarayoni o'zaro bog'liq ikki faoliyatni-o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari va turli qobilyatlari rivojlanadi, g'oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik hislari shakillanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Tarbiya jarayonida o'quvchida jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o'quvchining ongiga (ta'lim jarayonida), hissiyotiga (dars va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta'sir etib boriladi. Tarbiya jarayonida bulardan birortasi(ongi,hissiyoti,irodasi) e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Tarbiyalanganlikning asosiy belgilari quydagilardan iborat deb hisoblaydi mutafakkir Alisher Navoiy:

- jahl chiqqanda o'zini bosa olish;
- har bir ishni qilganda "yetti o'lchab bir kesish",
- sir saqlay olish, mulohaza qilib, ayrim gaplarni ichga yutish;
- doim ishonch bilan yashash va olg'a intilish;
- andisha chegarasidan chiqmagan holda dadil bo'lish;
- bir ishni boshlagandan keyin uni oxiriga yetkazmay qo'ymaslik.
- topgan tutganini tejab-tergab sarflash.

"Etnopsixologlar xulosalariga ko'ra milliy psixalogiyaning aynan o'sha etnos vakillarining faoliyati, xulq-atvori va shaxslararo muloqot jarayonlari orqali o'rganish mumkin.

Bizningcha ham milliy tarbiya jarayonlarining pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganish uchun shu yo'ldan yurish maqsadga muvofiq. Zero bu jarayon milliy va millatlar aro munosabatlarning mustaxkamligini ta'minlashga xizmat qiladi. Aynan milliy tarbiya jarayonida milliy-madaniy jipslik va birlikni ta'minlaydigan an'ana va qadriyatlar avloddan avlodga uzatiladi."

## International Symposium of Young Scholars (USA)

This conference will be organized in the USA on 10 the of October and the final proceeding will be provided on the 24th of October as a whole.

Shu o'rinda savol tug'iladi; Milliy tarbiya jarayonida milliy-madaniy jipslik, an'ana va qadryatlar jipsligi qachondan boshlangan?

Tarixan olib qaraganda qadimda O'rta Osiyoda shakllangan davlat va qabilalar: Baqtrya, So'diyona, Marg'iyona, Xorazm, Parkana, Parfiya, Kushon podsholigi, Somoniylar davlati,,

Yuqorida zikr etilgan qabila va davlatlar o'zlarining yuqori darajadagi milliyligi, milliy tarbiya usullari, an'ana va qadryatlariga ega bo'lganlar.

Tarbiya xalqimizning qadimgi etnik dunyo qarashida ham asosiy o'rin egallaganligini qadimgi o'zbek mutafakkirlarining asarlari orqali ham bilib olishimiz mumkin. Bular

Abu Nasr farobiyning "Fozil odamlar shaxri", "Kitob al Musiqi al-Kabir", Beruniyning "Mas'u qonuni", "Qadmgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Alisher Navoiyning "Makorim ul axloq", "Badoiy ul-bidoya" asarlaridagi insonni tarbiyalash g'oyalari hozirgi zamон bilan hamohangdir, bundan ko'rinish turibdiki ajodolarimiz nafaqt fan va ilm sohasida ,balki yoshlar tarbiyasi jihatidan ham o'z zamonalardan ancha ilgarilab ketgan edilar.

Bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda tarbiya usullaridan biri bo'lgan "Rag'batlantirish va Jazolash" usuliga to'xtalib o'tishni joiz deb bildik.

Rag'batlantirish-O'quvchiga kuchi va salohiyati yetadigan topshiriq berish orqali amalga oshiriladi, yani bola topshiriqni qanday amalga oshirganiga qarab unga turli rag'batlantirish choralar ko'rildi. Bular:

- ijobiy bajarilgan ishni ma'qullah;
- minnaddorchilik bildirish;
- iqtisodiy yordam.

Bu usul orqali bolada o'ziga bo'lgan ishonch ichki "men"ida "men qila olaman", "men bajara olaman" degan tushhunchalarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Albatta hamma narsada me'yor bo'lgani kabi "Rag'batlantirish" usulida ham meyordan chetflash maslik zarur. Zero sinfdagi bir o'quvchiga boshqalaridan ko'proq erkinlik berish:

- ana o'sha bola shaxsida "egaistik" dunyo qarashning shakllanishiga;
- bolaning har bir bajargan ishidan moddiy manfaat kutadigan bo'lib qolishiga;
- o'zini boshqa o'quvchilardan ustun ko'rishiiga;
- bola psixikasida "Men boshqalardan zo'rman" degan g'ayr tushunchaning ustanovkasiga;
- bolaning o'z ustida ishlamasligiga olib keladi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida rag'batlantirish bilan hamohang qo'llaniladigan usul jazolash usuliga to'xtaladigan bo'lsak;

Jazolash- tarbiyanuvchining hatti-harakatlari salbiy munosabat bilddirishdir.

Jazo-tarbiyanuvchining kamchiliklari va nuqsonlarini bartarf etishga qaratilgan choradir.

Jazo turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tanbex berish-eng yengil jazo chorasi hisoblanadi.
- ogoxlantirish-nomaqbul hattiharakatlarni oldini olishga qaratilgan jazo chorasi.
- hayfsand berish-yuqoridagi ikki chora o'z samarasini bermagandan so'ng qo'llaniladigan yanada qattiqroq jazolash usuli
- uyaltirish- uyat, or-nomus, shrmu hayo azaldan o'zbek xalqining eng nozik nuqtalaridan hisoblanadi. Bu usul esa aynan o'sha nuqtalarga tasir etish bilan amalga oshiriladi.

## International Symposium of Young Scholars (USA)

This conference will be organized in the USA on 10 the of October and the final proceeding will be provided on the 24th of October as a whole.

Ta'lrim muassasalarida jazolash ikki turda:

- Umumiy
- Individual tarzda olib boriladi.

Bu ikki usulning afzallik va kamchiliklariga to'xtalsak;

Umumiy jazolash- bu biror o'quvchining salbiy hatti-harakatlari uchun butun sinfni yoki jamoani jazoga tortishdir.

Sinfda minimal hisobda 21-22 ta o'quvchi taxsil olsa, bilamizki psixologik jixatdan har bir bola bir olam, birining psixikasi ikkinchisiga to'g'ri kelmaydi. Shunday ekan sinfda har xil o'quvchilar mavjud. Ulardan birining fel-atvori yumshoq yani yengil tanbex bilan to'g'ri yo'lga qaytadi. Ikkinchisining tarbiyasi og'irroq, unga faqat hayfsand kor qiladi.

Agar umumiy jazo sifatida tarbiyasi og'ir bolaning hatti-harakatlaridan kelib chiqqan holda hayfsand berilsa,bu yengil tanbex bilan to'g'ri yo'lga qaytuvchi o'quvchilar uchun qattiq ruhiy hamda psixik zarba bo'lishi mumkin.

Bunda bolada:

- o'z hatti-harakatlarini to'la qonli baholay olmaslik;
- sinfdagi har bir faoliyatidan xavfsirash;
- yuqoridagi holat yana takrorlanishidan qo'rqish natijasida fkrini to'la qonli ifoda etmaslik yoki ifoda etish chog'ida hayiqish yuzaga keladi;
- eng og'iri o'z o'qituvchisiga nisbatan salbiy hislar (nafrat, gina, g'arizlik) yuzaga kelishi mumkin.

Aksincha agar sinfdagi tarbiyasi og'ir bolalarni hisobga olmay oddiy tanbex bilan chegaralanilsa, bu tarbiyasi og'ir bolalarga hech qanday ta'sir ko'trsatmaydi.

Umumiy jazolashning ijobiy tomonlari ham yo'q emas aksincha talaygina:

- umumiy jazolash orqali bolalarda jamoaviy mas'uliyat;
- jamoa oldidagi aybdorlik;
- eng muhimi Aleksandr Dyuma aytganidek " Bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun" shiori ostida ish ko'rishga undaydi.

Individual jazolash:

- bolani o'z xatti-harakatlari uchun o'zi javob berish;
- har bir faoliyatga masuliyat bilan yondashish;
- o'z o'ziga, xatti-harakatlariga javobgarlik hissini shakllantiradi.

Xulosa o'rnilida yuqorida bayon etilgan jazo choralar haqqoniy me'yorda qo'llanilsa samarali bo'lishini unutmasligimiz, har bir jazo chorasi bolaning psixik jixatlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim ekanligini hamisha yodda saqlashimiz lozim. Shundagina bu yo'l bilan ma'lum natijaga erisha olamiz va albatta erishamiz.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ш.Мирзиёев "Нияти улугъ халқнинг – иши ҳам улугъ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади" "Ўзбекистон" 2019
2. I.A..Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T: Ma'naviyat. 2008.
3. Umumiy pedagogika nazariyasi X.Ibragimov, Sh.Abdullaeva – Toshkent-2008.

## International Simposium of Young Scholars (USA)

This conference will be organized in the USA on 10 the of October and the final proceeding will be provided on the 24th of October as a whole.

4. M.Qurbanov “Bolam baxtli bo’lsin desangiz” Toshkent “Ma’naviyat”-2014.
5. <http://www.ziyonet.uz>.
6. <http://www.pedagog.uz>.
7. <http://www.edu.uz>.